ILMIY AXBOROT

UDK 297.17 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a186

# IBN ARABIY VA TA’VIL ILMI

# ИБН АРАБИ И НАУКА О ТАВИЛЕ

# IBN ARABI AND THE SCIENCE OF TA’WIL

**Boltayev Abdurahim Amonovich**[1]

[1]**Boltayev Abdurahim Amonovich** – Buxoro davlat universiteti, Siyosiy fanlar nomzodi, dosent

***Annotasiya***

*Mazkur maqolada islom dinida Qur’on mazmunini tushuntirishda keng qo‘llanilgan ta’vil ilmi, uning tafsirdan farqli tomoni hamda ta’vil usulida Ibn Arabiyning o‘ziga xos jihatlari falsafiy tahlil qilingan.*

***Аннотация***

*В данной статье философски анализируются наука толкования, которая широко используется при объяснении содержания Корана в исламе, его отличие от тафсира, уникальные аспекты Ибн Араби в методе толкования.*

***Abstract***

*In this article, the science of interpretation, which is widely used in explaining the content of the Qur'an in Islam, its difference from tafsir, and the unique aspects of Ibn Arabi in the method of interpretation are philosophically analyzed.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ibn Arabiy, ta’vil, tafsir, Qur’on, tasavvuf, ramziy iboralar, majoz, zohir botin.*

***Ключевые слова****: Ибн Араби, тавил, тафсир, Коран, суфизм, символические выражения, метафора, захир, батин.*

***Key words:*** *Ibn Arabi, ta'wil, tafsir, Qur'an, sufism, symbolic expressions, metaphor, zahir, batin.*

## KIRISH

Tasavvuf ta’limoti allomalari ham shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqatni tushuntirishda hamda o‘z-o‘zini anglash, tasavvuf falsafasini yetkazishda ma’lum bir usullardan foydalangan. Bugungi kunda Qur’oni Karimni tarjima va tahlil qilish bo‘yicha ham tadqiqotlar amalga oshirildi. Tasavvuf sohasi doirasidagi ayrim tushunchalarni sharhlash, mazmunini aniqlashga qaratilgan yangi metodologik yondashuv va usullar olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Junayd Bag‘dodiyning mashhur iboralaridan biri “Kim Qur’onni yod bilmasa va hadislarni yozmasa - bu ishda to‘g‘ri yo‘lga ergasha olmabdi. Negaki, bu bilimimiz Kitob va sunnatga tayangandir”. Shuningdek, u tasavvufda ramziy iboralar orqali ma’noni kerakli odamga yetkazish – “ishorat” usulini ilk bor qo‘llagan mutasavvif hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada Ibn Arabiy falsafasi, tasavvufdagi ta’vil ilmiga munosabati mantiqiy izchillik jihatdan yoritib berildi. Tadqiqot jarayonida Ibn al-Arabiy Abu Bakr Muhammad va Halloj Husayn Ibn Mansurlarning arab va rus tilida nashr qilingan asarlaridan foydalanilgan. Shuningdek, ingliz olimi J.Trimingem, o‘zbekistonlik olimlar Hamidulloh Beruniy, Gulchehra Navro‘zova, Rustam Shodiyevlarning tadqiqot ishlari metodologik manba bo‘lib xizmat qilingan.

Mavzuni tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning tizimlilik tamoyillari, qiyosiy tahlil, intensional-teleologik tushuntirish usullaridan keng foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ibn Arabiy falsafasi markazida mutasavviflarning botiniy ilmlaridagi ishora qilish usuli yotadi. Majoz, ya’ni ishora mutasavvifning bayoni, tahlil, tafsir va sharhlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Majoz, allegoriya — adabiy badiiy usul yoki obrazlilik turi; mavhum tushuncha yoki mulohazani aniq bir obraz vositasida ifoda etish. Majozda ikki tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi. Ma’naviy qadriyatlar (haqiqat, muhabbat, vijdon, imon kabi)ni anglatuvchi umumiy tushunchalar bilan birga ma’lum tipik hodisalar, xarakterlar, mifologik personajlar, hatto aniq shaxslar ham majoz o‘rnida kelishi mumkin.

- Ibn Arabiy majoz bilan Qur’on oyatlari hamda borliqning zohiriy mazmun va

ko‘rinishlarida yotgan ilohiy sirlarga ishora qilib, insonlarning tafakkurini charxlashni maqsad qiladi. Xuddi shu nuqtada zohir va botin ilmi to‘g‘risidagi g‘oyalar vujudga keladi. Irfon ilmi ham zohiran,

ham botinan ilohiy axloqni mujassam etadi. Bu esa insondan ko‘ngli uyini orasta qilish, maqomlarni tadrijiy zabt etish (ko‘mirdan olmosga aylanish)ni talab etadi.

Ilm mohiyatiga ko‘ra, botiniy (hol) va zohiriy (qol) ilmiga ajratiladi. Botiniy (tasavvufiy) ilm orqali mavjud va nomavjud jonzot bilib olinadi. Botiniy ilm yashirin ma’nolarni kashf etadi. Botiniy (ilohiy) ilm tuganmas va mangu, zohiriy ilm esa cheklangan, ya’ni “Allohga olib boruvchi yo‘lning o‘zi yo‘qdir” [1,12].

Ibn Arabiy zohirni botinning borligiga ishora qiluvchi obraz, ya’ni qiyofa deb tushuntiradi [2,409]. Mutasavvif Qur’onni butun mavjudot va inson bilan yonma-yon yuruvchi hamda zohiriy ko‘rinishi harflar, tovushlarda namoyon bo‘luvchi, botiniy jihati esa, Muhammad payg‘ambar qalbida jilvalanuvchi borliq deb tushuntiradi. Ibn Arabiy Qur’onning qadim yoki muhdas (yangidan paydo bo‘lgan)ligi masalasini tahlil qiladi. Mutasavvif fikricha, Qur’onning oyatlari qadim bo‘lib, oyatning Haqni anglatish ma’nosi muhdas, ya’ni yangidir.

Ibn Arabiy Qur’on tafsirini ta’vil qilishdan farq qilishini aytadi. Tafsir Qur’on oyatlarining mazmuni, tarixi, nozil bo‘lish sabablari va ma’nolarini ochib bersa, ta’vil, oyatlarning botiniy ma’nolarini ilohiy kashf orqali har bir tariqat maktabining o‘ziga xos yo‘liga asoslangan holda ochib berish va tushuntirishdir. Ibn Arabiy fikricha, ta’vil ilmini egallash juda qiyin bo‘lib, mutasavviflargagina munosib bo‘lgan ilm hisoblanadi.

«Ta’vil» so‘zi lug‘atda qaytish ma’nosini anglatadi. Istilohda esa bir lafzning ma’nosini burish va uni zehnga ilk keladigan ma’nodan boshqa ma’noga yoki kuchli ma’nodan kuchsiz ma’noga qaytarishdir. Agar o‘sha burish va qaytarish dalil, isbot bilan bo‘lsa, u sahih ta’vil, bo‘lmasa, buzuq ta’vil bo‘ladi.

Qur’on va hadisda bayon qilingan “ta’vil” tushunchasini shunday ifodalash mumkin: Kalom qaytadigan haqiqat ta’vil deyiladi. (Ya’ni, so‘zdan ko‘zlangan haqiqat ta’vil deyiladi). Xabarning ta’vili berilgan xabarning ayni o‘zidir. Amrning ta’vili buyurilgan ishning o‘zidir. Bu xuddi Oisha roziyallohu anhudan rivoyat qilingan quyidagi ma’noga o‘xshaydi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ruku’larida: “Subhanakallohumma va bihamdika, Allohumma ig‘fir li”, der edilar. Qur’onni ta’vil qilar edilar”. Ya’ni, Qur’onda qilingan amrni bajarar edilar.

«Ular esa (Bu Kitobning) ta’vil-oqibatini (ya’ni, undagi oyatlar haq ekanlii isbotlanishini) kutmoqdalar. Uning ta’vili kelgan kunda ilgari uni unutganlar: «Robbimizning rasullari haq ila kelgan ekanlar...» derlar» (A’rof surasi, 53-oyat). Ya’ni: Allohning kalomining haqiqati va tasdig‘i kelgan kunda, deganidir.

Ibn Arabiy tafsir ilmini esa, hamma uchun mos, va uni tushunish mumkin bo‘lgan ilm deb baholaydi. Mutasavvif “Zohir” va botin ilmiga qo‘shimcha tarzda “hadd” (الحد chegara) va “matla’” (المطلعboshlanish joyi) tushunchalarini kiritadi. “Hadd” ning ma’nosi bir narsaning ikkinchisidan farqlanadigan jihatini anglatsa, “matla’”ning ma’nosi o‘sha narsaning mohiyatini anglatadi. “Risolai volidiya” da quyidagi fikr keltiriladi: “Diliing hammasini do‘st egallaydi» bilan «dilni do‘stning yodi egallaydi” deyishning orasidagi farq shuki, dilning hammasini do‘st egallasa, muhabbat natijasi haddan ortiq bo‘ladi va buni ishq deb ataydilar. Har qanday narsa va hodisada mushohada yuritish seziluvchi va idrok etiluvchi tashqi – zohir jihatlarni va sezgilarga ham, aqlga ham yashirin ichki (botin) ma’noni aniqlash imkonini beradi. Bu yashirin ma’no borliqning birinchi asosi, ilohiy mohiyatning dunyoga ichdan xosligining negizi va ayni vaqtda mushohada obyekti hisoblanadi. Yashirin ma’noni anglash - narsalarda, dunyoda Xudoni bevosita ko‘rish demakdir.

Ibn Arabiy aqlga tayangan ta’vilni tanqid qilib, va bu har qanday nazariy o‘lchamlardan tashqarida bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Uni biror ilmiy dunyoqarash bilan tushuntirish va ilmiy qoliplarga solish mumkin emas. U zohiriylikka yaqin tursada, o‘z-o‘zicha bir fandir [2,88].

Aql (lot. rationalis, yun. nus, fronesis, arab. Al-aql – asoslangan, maqsadga muvofiq) – insonning ma’naviy-ruhiy faoliyatida barcha ashyo-narsalar, hodisalarni qanday bo‘lsa aynan shunday holda bilish qobiliyati, mavhum fikrlash va tushunchalarni yaratish xususiyatiga aytiladi. Aql qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Aflotun va Aristotel falsafasida keng ishlatilib kelingan.

Mufassirlar kalomidagi «ta’vil» tushunchasi quyidagi ma’nolarga dalolat qiladi: U kalomni uning zohiriga to‘g‘ri keladimi-yo‘qmi, tafsir qilish va uning ma’nosini bayon qilishdir. Bu ma’ruf istilohdir. Bu ta’vil xuddi tafsirga o‘xshab to‘g‘risi maqtaladi, botili yomonlanadi.

Mutaaxxir faqih va mutakallimlar istilohidagi ta’vil tushunchasi shunday bayon qilinadi: Lafzni kuchli ehtimoldan kuchsiz ehtimolga o‘sha narsani vojib qiluvchi dalolat yuzasidan burish

ta’vildir. U haqda bahs-munozara bo‘ladigani ham shudir. U ikki qismdan – sahih va fosid ta’vildan iboratdir.

Sahih ta’vil Qur’on va Sunnat ta’limotlari dalolat qilgan ma’nolarga muvofiq bo‘ladi.

Fosid ta’vil esa unga xilof bo‘ladi.

«Kim (Allohning sifatlarini) **inkor qilishdan va o‘xshatishdan saqlanmasa, yo‘ldan toyadi va** (Allohni noloyiq sifatlardan) **poklashga erisha olmaydi»**, degani «Kim ta’vil yo‘li bilan yoki boshqa yo‘l bilan Alloh taoloning sifatlarini inkor qilishdan saqlanmasa, shuningdek, Allohning sifatlarini Uning maxluqlari sifatiga o‘xshatishdan saqlanmasa, Allohga maxluqotlarining sifatlaridan birini nisbat bersa, haqdan toygan bo‘ladi va hyech qachon U Zotni poklashga erisha olmaydi», deganidir. Bu mo‘taziliylarga va ko‘rish masalasida ular bilan hamfikr bo‘lganlarga raddiyadir. Shuningdek, Allohni Uning maxluqotlaridan biror narsaga o‘xshatadiganlarga ham raddiyadir.

Allohni Uning maxluqotlariga o‘xshatish kufr ekaniga dalil:

«U Zotga o‘xshash hech narsa yo‘qdir», degan oyatdir (Sho‘ro surasi, 11-oyat).

Shuningdek, Alloh taoloning sobit sifatlarini inkor qilish ham kufrdir. Chunki U Zot: «U eshituvchidir, ko‘rib turuvchidir», degan (Sho‘ro surasi, 11-oyat).

Tasavvufdagi ta’vil ilmini Ibn Arabiy faqatgina Haqdan beriladigan inoyat deb bilib, bu ilmning zohiriy va botiniy jihatlarini anglash darajasi Allohning himmatiga bog‘liq, deydi [3,68]. Mutasavvif tafsirda “Hadd” bo‘lsa, ta’vilda “Hadd” bo‘lmaydi deb hisoblaydi. Shu sababli mutasavvif olimning ta’vilida xato bo‘lmaydi, faqatgina ilmi yetishmasligi mumkin deb tushunadi. Olimning ta’vili o‘zi bilan hamfikr, ilmiy dunyoqarashi mos bo‘lganlar orasida qo‘llanilishi kerak degan fikrni keltiradi [2, 116-117].

Tasavvuf o‘z taraqqiyoti davomida shialik va undagi oqimlardan biri –ismoileylik ezoterizmi bilan yaqinlashib, shu yo‘l bilan “xoslar”gina egallashi mumkin bo‘lgan “Qur’on oyatlarini ramzlar orqali ta’vil qilish”, “botiniy, yashirin ma’nolarni kashf qilish” kabi g‘oyalarni o‘zlashtirdi.

Ibn Arabiy Qur’onning “Yunus” surasidagi “Allohning so‘zlarini o‘zgartirish yo‘q” ( لا تبديل لكلمات الله) degan 64 – oyatining ma’nosini borliqqa aloqador qilib tushuntiradi. Ya’ni oyatdagi “so‘zlar” so‘zi borliqdagi jamiki narsalarga ishora ekanligini aytadi. Oyatning ma’nosi borliq Allohning zotidan mustaqil emasligini anglatadi [2,8]. Mutasavvif inson qalbini Qur’onga o‘xshatadi. Qalbni anglash Haqni anglash deydi. Inson barcha sirlarga javobni qalbdan topadi. Ilohiy ilhomlar qalbda yangilanib, tursa-da, uning ilohiy mohiyati o‘zgarmasdir [2,127].

Ibn Arabiy ta’vilni maxfiy sirlarni anglashga, nuqsonlarni tushunish hamda yo‘qotishga ishora deb quyidagi fikrni keltiradi: “Alloh bizga bergan idroki orqali anglanadigan narsalar, o‘zida haqni muhrlagan ilohiy ilhomlar bo‘lib, Unga ishora qiladi” [2,484]. Mutasavvif idrokni Xudo tarafidan insonga berilgan donolik sifatida ikki tarkibiy qismga ajratadi. Birinchisi – narsalarni to‘liq ko‘rish, ikkinchisi –har bir jihatiga mos so‘z topa olish.

Ibn Arabiy qalbiy idrok ham borligini keltirib, bu Xudoni matnda ifodalanadigan moddiy fikrlardan xoli holda anglash bo‘lib, matnni “ehtimollikning birorta shakli bo‘lmagan aniqlik” [2,451]- deb yozadi. Qur’on matni mavhum ilmlardan xoli, majoziy ta’vilga ehtiyoj sezmaydi. So‘fiylar oldida turgan dolzarb muammolardan biri, matnning tuganmasligi, o‘zlashtirishning nuqsoni borligi hamda so‘fiyga ma’lum bo‘lganini ham so‘z bilan ifodalashning imkoni yo‘qligi hisoblanadi [2,191].

Ibn Arabiy ta’vilni idrok va ibodatning nuqsonli darajalari deb xulosa chiqaradi. Mutasavvif idrok darajalarini to‘rtta toifaga ta’alluqli qilib ko‘rsatadi: rasullar, nabiylar, valiylar va mo‘minlar. Bularning o‘ziga xos farqli jihatlari mavjud. Yuqori toifaga rasullar (payg‘ambarlar) nabiylar (payg‘ambarlar, biroq ularga ilohiy kitob nozil bo‘lmagan) va valiylar (xudoning do‘stlari, avliyo) kirsa, quyi toifaga Allohga ishonuvchi oddiy insonlar – mo‘minlar kiradi. Ibn Arabiy fikricha, toifa ahllari Qur’on oyatlarining ma’nolarini tushunishlarida o‘z darajalariga muvofiq yuqorilab boradilar. Toifalarning ibodatlari shaklan bir xil bo‘lsa ham ularni idrok etib, ijro qilinishi darajalarda farqlanadi [2,82]. Qur’onning ular nazdida mavqye’i va ma’nosi ham turlicha bo‘lib, nisbiylik kasb etadi. Qur’on matnining ma’nolarini to‘liq va tom ma’noda o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Uni tilda ifodalab, aqlda tasavvur qilib bo‘lmaydi [2,11].

So‘z — idrok qilishda so‘zga muhtoj bo‘lganlar uchundir. So‘zsiz idrok etganning so‘zga qanday ehtiyoji qoladi? Idrok eta bilgani uchun ko‘klarning, yerning hammasi so‘zdir. Hafif bir sasni eshitganga baqirib-chaqirishning nima hojati bor? Dunyo ham Qur’ondagi "Bo‘l!" (Uning amri «Bo‘l!» demak edi. U hamon bo‘ldi", Qur’oni karim, 36:82) so‘zidan bino bo‘lgandir.

ILMIY AXBOROT

Ibn Arabiy Qur’on oyatlarini ta’vil qilishda ularni har tomonlama o‘rganish tarafdori bo‘lgan. Mutasavuif Qur’onning “bo‘l” (كن), ya’ni Alloh borliqni yaratishda “bo‘l” deb amr qilganda borliq vujudga kelganligi to‘g‘risidagi oyatini ta’vil qilib, Yaratuvchining so‘zini tushunishda to‘rt jihatga e’tibor qaratish lozimligini aytadi. Birgina “bo‘l” ni kim aytdi va kimga aytdi, “bo‘l”dan kim bo‘lishi kerak va kim qabul qiladi. Qur’onning bu oyati bir qancha irfoniy ma’nolarga ega. Ibn Arabiy bu ma’nolarni kasrat (ko‘plik الكثرة) va vahdat (birlik الوحدة) va muassir (ta’sir etuvchi المؤثر) va mutaassir (ta’sirlanuvchi المتأثر), ifsho (oshkoralik الافشاء) va ixfo (maxfiylik الاخفاء), avval (birinchi الأول) va oxir (so‘nggi الآخر), zohir (namoyon الظاهر) va botin (yashirin الباطن) kabi Allohning sifatlarini anglatadi deb hisoblaydi [2,12]. Bu ilmni bilish va idrok etish qalbning zohir va botinni anglashiga olib keladi.

Falsafiy adabiyotlarda iroda (arab. xohish, istak, maqsad )ning ma’lum maqsad yo‘lidagi o‘z xatti-harakatini ongli ravishda yo‘naltirib turishi, shu yo‘ldagi qat’iyatliligi, mavjud to‘siqlarni yenga olishga qodir bo‘lgan ruhiy - ma’naviy salohiyatga aytiladi. Iroda inson faoliyatining muhim xususiyati, uning hayot mazmunini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi Mutasavuif Xudo tomonidan beriladigan ma’rifatning jihatlaridan biri ilohiy iroda orqali maxfiy sirlarni majoziy talqin qilish ekanligini ta’kidlagan. Ibn Arabiy fikricha, iroda nomavjudlik kabi tinch turadi. Amr bo‘lgach, harakatlanib, vujudga keladi, ya’ni mavjudga aylanadi [2,267]. Demak, Xudo tomonidan bo‘ladigan barcha amr va qaytariqlar aniq miqdor va o‘lchov bilan bo‘lgan iroda asosida bo‘ladi.

Mutasavuif qarashlarida amr va qaytariqlar asosida esa haqiqatni anglash vujudga keladi. Ilohiy amr va ilohiy iroda orasidagi aloqa Qur’on matniga mutavoziy (yonma-yon) mavjudlik darajalari yotadi. Ibn Arabiy fikricha, bu darajalar to‘rt qismga bo‘linadi:

1. moddiy
2. aqliy
3. kitobiy (yozma)
4. qavliy (so‘z bilan ifodalanuvchi) darajalar.

Darajalar Qur’onning mavjud ekanligini tasdiqlab turadi. Bu ta’vil qilish erkinligini beradi. Ibn Arabiy fikricha, Qur’on matni va inson mavjudligi mutavoziy (yonma-yon) amrda namoyon bo‘ladi. Inson yaratilmish bo‘lganligi uchun sabab va oqibatga bog‘langan. Mutasavuif Qur’ondan misol keltirib, fikrini Qur’on oyati bilan asoslaydi: “Alloh sizni zaiflikda yaratgan, so‘ngra zaiflikdan keyin quvvatli qilgan, so‘ngra quvvatdan keyin yana zaiflik va qarilikni yetkazgan zotdir” (Rum surasi: 54 oyat.). Demak, ilohiy iroda va uning oqibati bilan Yaratuvchi va yaratilishlar o‘rtasida aloqa mavjud. Ibn Arabiy shu aloqalarning o‘rnatilishida “amr” (“buyruq”) hal qiluvchi rolni o‘ynaydi, deb ta’kidlagan[1,14].

## XULOSA

Demak, Ibn Arabiy aqlga tayangan ta’vilni tanqid qilib, bu har qanday nazariy o‘lchamlardan tashqarida bo‘ladi deb ta’kidlaydi.

- Ibn Arabiy ta’vilni maxfiy sirlarni anglashga, nuqsonlarni tushunish hamda yo‘qotishga ishora deb aytadi.
- Ibn Arabiy Qur’onning ba’zi oyatlarini teskari ma’nolarda ham ta’vil qilgan.
- Ibn Arabiy Qur’on oyatlarini ta’vil qilishda ularni har tomonlama o‘rganish tarafdori bo‘lgan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al-Xalladj al-Xusayn ibn Mansur. Kitabut tavasin (Сад Знания) / Перевод с арабского В.Нечипуренко, И.Полонский. – М.: Номос, 2010. – С. 12 (Al-Khalladj al-Xusayn ibn Mansur. Kitabut tavasin (Garden of Knowledge) / Translated from Arabic by V. Nechipurenko, I. Polonsky. – M.: Nomos, 2010. – pp.12).
2. Ibn Arabiy. Al-Futuhot al-Makkiyya. Bayrut: Darul kutubil ilmiyya, 1985. J: 4. –B.409 (Ibn Arabiy. Al-Futuhot al-Makkiyya. Bayrut: Darul Kutubil Ilmiyya, 1985. J: 4. –pp.409).
3. Ibn Arabiy Fususul Hikam. Bayrut: Dorul kitabil arabiy, 1946. –B.68 (Ibn Arabiy Fususul Hikam. Bayrut: Dorul kitabil Araby, 1946. -pp.68).
4. Trimingham JS Voll JO. The Sufi Orders in Islam. New York: Oxford University Press; 1998.
5. Navro‘zova G. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi //Toshkent:«Fan. – 2005 (Navro‘zova G. Sufi teaching of Naqshbandiya and perfect human education // Tashkent: Science. - 2005.).
6. Negmatovna N. G. Khojagon education and the cpecifics of this way //Academicia: An international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 1331-1337.
7. Nigmatovna N. G. QUESTIONS OF WORLD AND PERSON IN THE BAHAUDDIN NAQSHBAND’S WORK “AVROD” //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 03. – С. 4-8.

8. Шадиев Р. Суфизм в духовной жизни народов Средней Азии в IX–XIII вв.: дис.… докт-ра. филос. наук //Э. Наджибулои. – 1993 (Shadiev R. Sufism in the spiritual life of the peoples of Central Asia in the 9th–13th centuries: dissertation ... doctoral. philosophy Sciences //E. Najibuloi. – 1993).

9. Шодиев Р. Т. Суфизм в духовной жизни Средней Азии (IX-XII вв)[Sufism in the spiritual life of Central Asia (IX-XII centuries)] //Автореф. Докторской диссертации.–1993. (Shodiev R. T. Sufism in the spiritual life of Central Asia (IX-XII centuries) [Sufism in the spiritual life of Central Asia (IX-XII centuries)] //Avtoref. Doctoral dissertation.–1993.).

10. Шодиев Р. Т. Критический анализ нравственных норм среднеазиатского суфизма. – 1983 (Shodiev R. T. Critical analysis of the moral norms of Central Asian Sufism. - 1983).

11. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.

12. Nasirdinovich U. F., Rakhmatullaevna U. L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – S. 1796-1801.

13. Turaev B. O., Namatov N. A., Namatov M. A. Islamic achievements in science //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – S. 25-35.

14. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – Т. 4. – №. 84. – С. 164-167.

15. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50 (Safarov A. I., Xakkulov N. K. Characteristic qualities of a perfect person in Sufism // Modern science as a socio-political factor in the development of the state. - 2019. - pp.48-50).